



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

DJURAYEV Risbay

Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Nodira EGAMBERDIYEVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

MUNDARIJA

3 **U.M.Askarova**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari

8 **M.L.Boltayeva**

Fizika ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil uy sharoitida laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari

17 **M.M.Murtozayeva**

Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishda amalga oshiriliyatgan ishlohotlar hamda nodavlat va notijarat tashkilotlarining o'rni

22 **M.A.Asgarova**

Kitobxonlik – intellektual salohiyatni oshiruvchi vositasi sifatida

26 **M.X.Toshibekova**

O'quvchilarning o'quv-biluv kompetetsiyasini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati

30 **D.A.Muminova**

Xorijiy tajribalarida kitobxonlik

36 **O.M.Asgarova, M.X.Asrarbayerova**

Mahalla, oila va maktab hamkorligi modeli asosida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash

42 **M.B.Usimanova**

O'quvchilarни badiiy asarlar vositasida milliy axloq sifatlarni rivojlantirish yo'llari

47 **N.G.Gulamova**

Talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni

51 **J.Muxiddinova**

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchining ijodiy yondashuv kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari

56 **G.N.Ergasheva**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishning samarali usullari

60 **K.R.Abdullayeva, M.B.Qodirova**

Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni

64 **D.A.Abdu samiyev**

O'qituvchi kasbiy deformatsiyasi va uning oldini olish tamoyillari

68 **U.Y.Azamov**

O'smirlarda ijtimoiy dunyqarashni shakllantirish

72 **U.Tumanov**

O'qituvchi mehnat faoliyatida vaqtini to'g'ri tashkil etishga pedagogik yondashuv

77 **B.Z.Qayumov**

Talabalar o'quv faoliyitidan qoniqqanlik darashasining xususiyatlari

82 **S.X.Tojiboyeva**

O'quvchilar ma'naviy qadriyatlarni Abu ibn Sino ta'limotlari asosida rivojlantirishni tashkil etishning funksiyakari

86 **G.Yo.Jumanazarova**

Oilashunos olim Abdurashid Munavvarov – dolzarb muammolar tadqiqotchisi sifatida

92 **D.Jabborova**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tolerantlik qobilayatini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati

96 **Yu.A.Abiyeva**

O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar

102 **G.N.Narzullayeva**

Oila munosabatlarini gender tengligiga erishishning muhim jihatlari

108 **G.A.Inamova**

Yuqori sinflarda ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish (listening) orqali o'qitishni shakllantirish va rivojlantirish

118 **R.Sh.Sharofutdinova**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirish

124 **M.Muxamadaliyeva**

Boshlang'ich sinf sinflarda to'grak ishi va uning mazmun-mohiyati

130 **N.T.Mamatxanova**

Bo'lajak o'qituvchilarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari

M.Azizov

Turizmlar jarayonida o'quvchilarida ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari



O'QUVCHILARNI BADIY ASARLAR VOSITASIDA MILLIY AXLOQ SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

M.B.USMONOVA,

*NamDU Maktabgacha ta'lif metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi*

Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat xavf solib turgan bir paytda yoshlarni milliy xarakter –xususiyatlarini badiiy asarlar vositalari orqali tarbyalash haqida fikr yuritilgan.

Kalitso'zlar: ommaviy madaniyat, tarbiya, milliy xarakter, mintalitet, axloq, o'quvchi

Эта статья посвящена воспитанию в молодежи качеств национального характера посредством художественной литературы в то время, когда массовая культура представляет собой угрозу в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: массовая культура, воспитание, национальный характер, менталитет, этика, читатель.

This article is devoted to the education of the qualities of a national character in young people through fiction at a time when mass culture is a threat in the context of modern globalization.

Key words: mass culture, education, national character, mentality, ethics, reader.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasini tashkil etishda xushyorlikni yo'qotmasligimiz darkor. Zero, tobora dolzarblik kasb etayotgan va nazorat qilish imkoniyati bo'lmayotgan axborot muhiti, turli millatlar madaniyatining yaqinlashuvi hamda "ommaviy madaniyat" nomi ostida yoshlar ongini zabt etayotgan G'arb madaniyati milliy qadriyatlar o'mini egallamoqda. Buning natijasida yoshlarning ruhiyat va xarakterida milliy axloq g'oyalariga yot xususiyatlar ko'zga tashlanmoqda. Shu bois yosh avlodda milliy xarakter xususiyatlarni shakllantirish, bu o'rinda badiiy adabiyotlar imkoniyatlaridan foydalanish masalasi o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Milliy xarakter xususiyatlariga ega bo'lish milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash esa shaxsning o'zgalarga qaram, tobe bo'lmasisligi hamda haq-huquqlarining kamsitilmasligini ta'minlaydi. O'zgalarga tobe bo'lmagan shaxs esa erkin, mustaqil bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z imkoniyatini namoyon eta oladi.

Bugungi globllashuv sharoitida yoshlarda aynan o'quvchilarda milliy xarakter –xususiyatlarini badiiy asarlar orqali rivojlantirish, ularda kitobxonlikka qiziqishni kuchaytirish, o'zlikni anglash va bilim olishga undash.

V.Qo'chqorovning fikricha, o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish shu kunning muhim talabi va ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj ekanligiga e'tibomi qaratadi. Muallifning ta'kidlashicha, o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyoji "... millatimiz, xalqimiz tasavvuriga,



tarixiy-madaniy an'analariga, sharqona odob-axloq normalariga zid qarashlar, parnografik asarlar, siyqa san'at mahsulotlariga qarshi kurashish zarurligidan kelib chiqadi. "Ommaviy madaniyat" deb nom olgan ushbu g'ayri axloqiy asarlar bugun milliy madaniyatga, milliy o'zlikni anglashga katta xavf solmoqda". Zero, "Ommaviy madaniyat"da milliy xususiyat, milliy-tarixiy asos yo'q. U milliy madaniyat, milliy xarakter, milliy manfaat nima ekanligini bilmaydi. Xalqning, millatning uzoq asrlar davomida yaratgan qadriyatlarini u ikkilanmay rad etadi, ularni nokerak vajga aylantirib, g'ayri milliy, g'ayri insoniy qarashlami targ'ib etadi. U tomoshabin his-tug'usiga ta'sir etishni bosh maqsadi qilib qo'yadi; uning uchun qaysi g'oyani targ'ib qilayotgani emas, balki tomoshabinni o'z tazyiqida ushlab turish, yaratgan narsalami ikkilanmay, fikr qilmay tayyor narsa sifatida qabul qildirish muhimdir" [1, 26].

Badiiy asarlar vositasida o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari har tomonlama, chuqur o'rganilib, mazkur jarayonning samarali kechishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlansa, fan o'qituvchilarining bu borada faollik ko'rsatishlariga erishilsa, o'quvchilarda badiiy asarlar vositasida milliy xarakter xususiyatlarini o'rganishga nisbatan ma'naviy ehtiyoj qaror toptirilsa, shuningdek, o'quvchilarida badiiy asarlar vositasida milliy xarakter xususiyatlarining rivojlanganlik darajasini baholashga imkon beruvchi mezonlar asoslangan holda tahlil etilishi nazarda tutilgan jarayonda yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish imkonini yaratadigan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa tadqiqot maqsadiga erishish mumkin.

Tadqiqot ob'ekti badiiy asarlar vositasida o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish jarayoni.

– *Tadqiqotda qo'llanilgan usullar* mavzuga doir ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish;

- pedagogik kuzatish;
- anketa;
- suhbat;
- intervyu;
- modellashtirish;
- pedagogik tajriba;
- ekspert baholashdan foydalanildi.

Natijalar va amaliy misollar

O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda "ommaviy madaniyat"ga xos qusurlardan holi, etnik o'ziga xoslikni aks ettirishga xizmat qiluvchi sof milliy madaniyatni keng targ'ib qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar ruhiyati va axloqida g'ayri milliy odatlarning shakllanish sabablarini tahlil qilar ekanmiz, asosiy sabab yoshlar tarbiyasida mafkuraviy bo'shliqning paydo bo'lish ekanligiga alohida urg'u berishimiz lozim. Jumladan, "...ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlarda nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, milliy qadriyatlarga munosabatda, unga nisbatan loqaydlik yoki uni tushunmaslikdan boshqa xalqlarning



qadriyatlarini shunchaki qabul qilish hollari bu sohada mafkuraviy bo'shliq tufayli paydo bo'lmoqda" [2, 16]. Demak, yoshlarning "ommaviy madaniyat" ketidan ergashishlari, o'zlarida g'ayni milliy odatlami shakllantirishlari va milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlamni bepisand qilishlarining oldini olish, ularda milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga hurmatni qaror toptirishda eng to'g'ri va samarali yo'l – bu ularning tarbiyasida ma'naviy, mafkuraviy bo'shliqning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik sanaladi. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ortidan ergashishlarining oldini olishda ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va intilishlarini inobatga olgan holda milliy ma'naviy-axloqiy g'oyalar bilan "shug'orilgan" san'at asarlar, shu jumladan, badiiy adabiyotlarni yaratish hamda ular e'tiborlariga havola qilish muhim sanaladi.

Sotsiolog olim M.Bekmurodov o'z ilmiy izlanishlarida o'zbek milliy mentaliteti xususiyatlarini tarixiy nuqtai nazardan o'rganishga uringadi. Muallifning fikricha, so'nggi bir necha yuz yilliklarda o'zbek milliy mentalitetida ma'lum qusurlar, salbiy holatlar aks eta boshtagan. Ularning asl sabablarini aniqlamay, ularni bartaraf etmay turib yoshlarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, ruhiy yetuklikni tarbiyalab bo'lmaydi.

Anglanganidek, asrlar davomida millat tomonidan qadrlanib kelingan milliy-axloqiy qadriyatlarining inkor etilishi millat vakillari xarakteri, ruhiyatida salbiy odatlamining shakllanishini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga milliy inqirozni yuzaga keltiradi, shuningdek, millat sifatida o'z qadr-qimmatini to'g'ri anglamaslikka olib keladiki, bu esa o'z navbatida millatning o'zga millatlar tomonidan qaram qilinishiga zamin yaratadi. M.Bekmurodov o'z asarlarida millatning qaramlikka mahrum bo'lishida muhim omil – bu eskapistik mayl ekanligiga ishonch bildiradi. Muallifning e'tirof etishicha, "millat xarakterida eskapistik mayl, ya'ni real borliqni aynan tasavvur etish, tushunish, yuz berayotgan hodisalarning mag'zini chaqish emas, balki voqealar mohiyatini anglab yetishdan qochish, yolg'on tasavvurlarga berilish kayfiyatining kuchayishi" [3, 4] bevosita Markaziy Osiyoga qilingan bosqinlar ta'siri va totalitar tuzum ta'ziqlari bilan bog'liqdir.

Tarixiy tajribadan ma'lumki, jahon xalqlari madaniyatining o'zaro yaqinlashuvi ular o'rtasida yakdillik, tinchlik va totuvlikning qaror topishiga xizmat qilib kelgan. Biroq, turli milliy madaniyatning yaqinlashuvi – bu bir millat madaniyat tomonidan ikkinchi, nisbatan kam sonli aholiga ega millatlarga xos milliy o'zlikni inkor etish, uni eskilik sifatida qabul qilinishini anglatmaydi. Qolaversa, mavjud sharoitda turli millatlarga xos madaniyatlarining o'zaro yaqinlashuvi ular o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash emas, balki milliy mentalitetlarning standartlashtirish maqsadini ko'zlamoqda. "Garchi dunyo xalqlari mentalitetlarining standartlashuvi muayyan ijobiy jihatlarni ifoda etsa ham o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Xususan, bu narsa xalqning milliy o'zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylig an'analariga, milliy xarakter bir butunligiga putur yetkazadi" [3, 4].

Psixologik nuqtai nazardan o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirishda ularning faol hayotiy faoliyati inobatga olinishi, mavjud xatti-harakatlarining milliy mentalitet xususiyatlariga mos kelishiga erishish lozim. Zero, "... xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-



harakatlariga bog‘liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatning o‘rni shundaki, xuddi shu faol faoliyatda xaraktemi ifodalaydigan harakatning individual o‘ziga xos usullari tarkib topadi” [4, 177].

Darhaqiqat, o‘quvchilaming ta’lim olayotgan hayotiy faoliyatlarini doimiy ravishda, izchil nazorat va tahlil qilib borish, ularning xatti-harakatlari qay darajada milliy xarakter xususiyatlariga mos ekanligini o‘rganish so‘z yuritilayotgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Shu sababli adabiy ta’lim jarayonida ham o‘rganilayotgan badiiy asarlarning o‘quvchilarda muayyan xatti-harakatlarning milliy xarakter xususiyatlariga mos kelishiga yordam beruvchi ta’sirkuchidan foydalanishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Haqqiqatdan ham bozor iqtisodiyoti, bu jarayonda yuzaga keluvchi qiyinchiliklar, iqtisodiy tangliklar ijtimoiy sub‘ektlarning moddiy ne’matlarga bo‘lgan munosabatlarini keskin ravishda o‘zgarishiga olib keladi. Jamiyat a’zolari moddiy mablag‘ va ne’matlarni tejash, ulami isrof qilmaslik, o‘rinli sarf-xarajatlami amalga oshirishga odatlanadilar. Yuqorida muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, me’yorsiz bag‘rikengilik, hotamtoylilik, sahovatpeshalik va serchiqimlilikka barham beriladi. Biroq, hayotiy kuzatishlar bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklifning o‘sishi, ishlab chiqarish tarmoq hamda sohalarining kengayishi, tadbirdorlar sifining shakllanishi, xususiy tadbirdorlik hisobiga aholi moddiy daromadining o‘sishi natijasida ayrim milliy urf-odatlarga hasham bag‘ishlash, ulami dabdabaga aylantirishga intilish kabilaming ham sodir etilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot muammosining yechimini topish jarayonida yuqoridagi kabi hodisalarning badiiy asarlarda yoritilishi va ularning o‘quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga ta’sirini o‘rganishga ham e’tibor qaratildi.

2004 yilda tayyorlanib, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan “Adabiyot” darsligi ni o‘rganish natijasida quyidagilar aniqlandi:

1) darslikdan jami 62 ta mavzu, shuningdek, “Xotima” va “Ilovalar” kabi bo‘limlar o‘rin olgan;

2) o‘rganilishi taklif qilingan mavzular qadimgi davrdan boshlab, to XV asrgacha bo‘lgan davrlarda yaratilgan adabiy yodgorliklar asosida belgilangan;

3) mavzular qamroviga ko‘ra adabiyot fanining ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyati, qadimgi yozma manbalar (“Avesto”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit-turk” asari), xalq og‘zaki ijodi namunalari (“To‘maris” va “Shiroq” afsonalari, rivoyatlar, asotirlar, maqollar, xalq qo‘shiqlari), hadislar hamda mualliflar (Yusuf Xoshojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Nosiruddin Rag‘buziy, Pahlavon Mahmud, Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiyl, Gadoiy, Lutfiy, Durbek) hamda jahon adabiyoti namunasi (Firdavsiyning “Shohnoma” asari hamda ushbu asar tarkibidan o‘rin olgan “Rustam va Suhrob” dostoni)ni o‘z ichiga olgan;

4) darslik mundarijasidan o‘rin olgan mavzular mazmuniga ko‘ra yoshlar, xususan, o‘quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga bevosita hamda bilvosita xizmat qiladi.

Adabiyot fani o‘qituvchilari ishtirokida tashkil etilgan uchrashuv, suhbat va davra suhbatlarining natijalariga ko‘ra quyidagilar aniqlandi



Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning mavjud holati

No	Holatlar	O'qitusvehilarining yondashuvlari
1.	O'quvchilarning milliy xarakter xususiyatlariiga egaliklari	O'smirlarning atrofdagilar bilan munosabatida milliy xarakter xususiyatlari aks etsa-da, hiroq ularning muomalasi, kiyinishi, xatti-harakatlari va xulqatvorida bu holat ko'zga tashlanmaydi
2.	O'quvchi shaxsida aks etuvchi asosiy milliy xarakter xususiyatlari	Kattalarga hurmat, ma'lum xatti-harakatlarni tashkil etishda atrofdagilardan tortinish, ona-onanining burmatini saqlash, oila sha'nini o'yash
3.	O'quvehilarda g'ayri milliy xarakter xususiyatlarining kuzatilish sabablari	"Ommaviy madaniyat"ning o'smirlar o'rtaida keng yeytilishi, turli yo'nalishlardagi shoular, badiiy saviyasi past bo'lgan kinofilmlar, kiplarning ishlaniши, g'oyasiz, mantiqsiz qo'shiqlarning ko'payishi, xorijiy seriallarning ommalashuvsi, Internet sahifalarida g'ayri axloqiy kiplarning e'lon qilinayotganligi, turli gazeta va jurnallarda zo'rmazo'raki shov-shuvlarning avj olishi
4.	"Adabiyot" fanining o'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishdagi roli	O'smir-o'smir-o'quvchilar uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligi mundarijasiga mazmunida aynan milliy xarakter xususiyatlariiga ega qahramonlar obrazlari yoritilgan "Shiroq" va "To'maris" dostonlarigina kiritilgan, garchi klassik va zamoneaviy o'zbek adabiyoti milliy xarakter xususiyatlarini yoritgan asarlarga ega bo'lsa-da, darslikda ularning imkoniyatlaridan foydalananishga e'tibor qaratilmagan

Nazariy tahlil o'rta maktab o'quvchilarining faoliyatini kuzatish natijasida, shuningdek, zamona viy taraqqiyot talablariga muvofiq o'zbek millatining tipik vakillari bo'lgan bu yoshlar xarakterida yaqqol ko'zga tashlanmayotgan yoki yetarli darajada rivojlanmagan xususiyat (fazilat)lar ham aniqlandi. Ular: 1. Bag'rikenglik, mehr-oqibatlilik. 2. Milliy qadriyatlarga hurmat va an'analarga sadoqatilik. 3. Jamoa hamda jamiyat manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yish. 4. Mardlik, shijoatlilik. 5. Oriyat, g'ururlilik. 6. Hayo, ibo va andishaliik. 7. Kattalar humrat ko'rsatish. 8. To'g'riso'zlilik, halollik. 9. Vijdonlilik, adolatparvarlik. 10. Mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy bosqichida o'quvchilar shaxsida yetarli darajada ko'zga tashlanmayotgan mazkur xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiysi /Mas'ul muhar. K.N.Shoniyozov. – T.: O'qituvchi, 1994. – 320 b.
2. Jo'raev N. O'zlikni anglash mavridi. – T.: O'zbekiston, 1990. – 126 b.
3. Ibrohimov A. Millat ovozi. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konsemi, 2003. – 397 b.
4. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 362 b.